



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№12**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                               |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....                                         | 44 |
| Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li                                                                                         |    |
| TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....       | 48 |
| Maxmudova Aziza Pirmamatovna                                                                                                  |    |
| "INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH..... | 53 |
| Turayeva Gulizahro                                                                                                            |    |
| АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИССЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....       | 57 |
| Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли                                                                                        |    |
| KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....                                                 | 62 |
| G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna                                                                   |    |
| KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....                                        | 67 |
| Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich                                                                                        |    |



# KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO‘LLARI



**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich**

TDIU “Savdo ishi” kafedrası dotsenti

E-mail: shodmonqulovkamoliddin@gmail.com

ORCID : 0009-0002-1431-4679

**Annotatsiya.** Hozirgi davrda kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarishning metodologiyasi va amaliy yo‘llarini chuqur baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada kichik sanoat zonalari boshqarish jarayonlarining nazariy asoslari, samaradorlikni oshirishga qaratilgan mexanizmlar hamda ularning amaliy joriy etish yo‘nalishlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari kichik sanoat zonalari boshqaruv sifatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy-uslubiy yondashuvlarni ko‘rsatib beradi.

**Kalit so‘zlar:** kichik sanoat zonalari (KSZ), boshqaruv metodologiyasi, samaradorlik, strategik rejalashtirish, innovatsion yondashuv, boshqaruv mexanizmlari, axborot texnologiyalari, resurslarni boshqarish, iqtisodiy rivojlanish.

**Abstract.** Currently, a comprehensive evaluation of the methodology and practical approaches for the effective management of small industrial zones is of significant importance. This article discusses the theoretical foundations of managing small industrial zones, mechanisms aimed at enhancing efficiency, and directions for their practical implementation. The findings highlight scientific and methodological approaches that contribute to improving the management quality of small industrial zones.

**Key words:** small industrial zones, management methodology, efficiency, strategic planning, innovative approaches, management mechanisms, information technologies, resource management, economic development.

**Аннотация.** В настоящее время важное значение приобретает всесторонняя оценка методологии и практических путей эффективного управления деятельностью малых промышленных зон. В статье раскрыты теоретические основы управления малыми промышленными зонами, механизмы повышения эффективности и направления их практического внедрения. Полученные результаты отражают научно-методические подходы, способствующие совершенствованию качества управления малыми промышленными зонами.

**Ключевые слова:** малые промышленные зоны, методология управления, эффективность, стратегическое планирование, инновационные подходы, управленческие механизмы, информационные технологии, управление ресурсами, экономическое развитие.

## KIRISH

Bugungi kunda kichik sanoat zonalari (KSZ) milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida e‘tirof etilmoqda. Ushbu zonalar mahalliy ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, raqobatbardosh bozor sharoitida KSZlarning samarali faoliyat yuritishi davlatning iqtisodiy siyosatida ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda kichik sanoat zonalari boshqarish mexanizmlarining takomillashuvi ularning rivojlanish salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. Boshqaruv jarayonining sifatli tashkil etilishi KSZlarning raqobatbardoshligini oshirish, resurslarni samarali taqsimlash hamda ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.



Kichik sanoat zonalarining faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etish va samarali boshqarish zamonaviy boshqaruv metodologiyalarini qo'llashni talab etadi. Bunda strategik rejalashtirish, resurslarni optimal taqsimlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish hamda kadrlar salohiyatini oshirish kabi omillar alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, KSZlar faoliyatida iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash, innovatsiyalarni keng joriy etish va ijtimoiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqola kichik sanoat zonalarini boshqarishning samarali metodologiyasini aniqlash, mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan yo'llarni o'rganishga bag'ishlanadi. Tadqiqot doirasida KSZlarning boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mazkur natijalar kichik sanoat zonalarining barqaror rivojlanishiga va mamlakat iqtisodiyotiga qo'shimcha impuls berishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik sanoat zonalarini (KSZ) samarali boshqarish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ilmiy manbalarda boshqaruvning nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari va innovatsion boshqaruv amaliyoti keng yoritilgan.

Ismailov va Karimov (2021) tadqiqotlarida KSZlarni boshqarishda strategik rejalashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim omillar sifatida ko'rsatiladi. Mamatov (2020) esa O'zbekistonda KSZlarning innovatsion rivojlanishini tahlil qilib, texnologik modernizatsiya va avtomatlashtirishning raqobatbardoshlikka ta'sirini asoslaydi. Kuznetsova (2018) esa kichik sanoat korxonalarida resurslarni optimal boshqarish va inson kapitalini rivojlantirishning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Nazarov (2022) KSZlarni boshqarishda tizimli yondashuv muhimligini ko'rsatib, ishlab chiqarish, moliya, innovatsiya va kadrlar siyosatining integratsion boshqaruvda birlashishi zarurligini qayd etadi. Jahon banki (2019) esa rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat zonalarini samaradorligini oshirish uchun davlat-xususiy sektor hamkorligi va infratuzilmani modernizatsiya qilishni asosiy omil sifatida ko'rsatadi.

Xodjiev (2021) resurslarni tejamkor boshqarish, xarajatlarni optimallashtirish va energiya samaradorligini oshirishni boshqaruvning muhim yo'nalishi deb baholaydi. Shodmonqulov (2022) o'z tadqiqotida KSZlarning hududiy rivojlanishdagi o'rnini ochib, O'zbekiston sharoitida amaliy boshqaruv modelini taklif qiladi. Salimov va Salimov (2020) monografiyasida esa KSZlarning tashkiliy-iqtisodiy asoslari, davlat qo'llab-quvvatlashi va investitsion muhitning ahamiyati yoritilgan.

Umuman, adabiyotlar tahlili KSZlarni samarali boshqarish uchun strategik rejalashtirish, raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, resurslarni optimal boshqarish, inson kapitalini rivojlantirish va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kichik sanoat zonalarini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy manbalar, statistik ma'lumotlar hamda amaliy tajribalar chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, adabiyotlarni tahlil qilish usuli qo'llanildi. Mazkur jarayonda sohaga oid ilmiy maqolalar, davlat dasturlari, normativ-huquqiy hujjatlar va iqtisodiy tahliliy materiallar o'rganilib, kichik sanoat zonalarini boshqarishga doir nazariy va amaliy yondashuvlar aniqlab olindi.

Ikkinchidan, boshqaruv jarayonlari monitoringi amalga oshirildi. Kichik sanoat zonalarida mavjud boshqaruv tizimlari, ularning tashkiliy tuzilishi, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda qaror qabul qilish jarayonlari o'rganildi.

Uchinchidan, sifatli va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanildi. Statistik ma'lumotlar asosida KSZlarda qo'llanilayotgan boshqaruv metodlarining natijadorligi baholandi, mavjud muammolar va rivojlanish imkoniyatlari aniqlab olindi.

To'rtinchidan, ekspert intervyulari va so'rovnomalar o'tkazildi. Ushbu jarayon orqali soha mutaxassislari, KSZ rahbarlari va amaliyotchi iqtisodchilarning fikrlari o'rganilib, boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Olingan natijalar kichik sanoat zonalarini faoliyatini samarali boshqarish uchun kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Xususan, strategik rejalashtirishni takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hamda boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish KSZlarning tashkiliy-texnik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va moliyaviy resurslarni



yetarli darajada ta'minlash kichik sanoat zonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Kichik sanoat zonalarini samarali boshqarish metodologiyasi — bu ishlab chiqarish, moliyaviy, kadrlar va boshqa turdagi resurslardan eng optimal, tizimli va maqsadga muvofiq tarzda foydalanishni ta'minlovchi usullar, tamoyillar va yondashuvlar majmuasidir. Ushbu metodologiya KSZlarning iqtisodiy faoliyatini yanada samarali tashkil etish, raqobatbardoshligini oshirish hamda ishlab chiqarishda barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

KSZlarda innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish maqsadida ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish muhimdir. Bu nafaqat mahsulot sifatini yaxshilashga, balki yangi bozor segmentlarini egallash, eksport salohiyatini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashtirilishi, soliqqa oid imtiyozlar yaratish va investitsiya muhitini yaxshilash kichik sanoat zonalarini faoliyatining barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardir.

Boshqaruv metodologiyasida texnologik yondashuvlar bilan bir qatorda inson omilining o'rni alohida ahamiyatga ega. Xodimlarni rag'batlantirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish va jamoaviy muhitni mustahkamlash boshqaruv samaradorligini sezilarli oshiradi. Bu kabi inson kapitaliga yo'naltirilgan yondashuvlar korxonalar faoliyatida yuqori natijalarga erishish uchun zamin yaratadi.

Kichik sanoat zonalarini (KSZ) — maxsus belgilangan hududlarda joylashgan kichik va o'rta sanoat korxonalarining majmui bo'lib, ularning faoliyati mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda innovatsion ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan. KSZlarning o'ziga xos jihati kichik hajmdagi ishlab chiqarishlarning moslashuvchanligi, ko'p tarmoqli tuzilmasi va bozor talablarining tez o'zgarishiga moslashish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

KSZ faoliyatini boshqarish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u o'zaro integratsiyalashgan ko'plab kichik korxonalar faoliyatini uyg'unlashtirishni talab qiladi. Boshqaruv tizimi quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi: strategik rejalashtirish, moliyaviy boshqaruv, kadrlar boshqaruvi, ishlab chiqarishni tashkil etish, marketing faoliyati va innovatsiyalarni joriy etish. Ushbu elementlarning har biri o'zaro bog'liq bo'lib, samarali boshqaruvni ta'minlash uchun kompleks tarzda faoliyat yuritishi lozim (1-jadval).

1-jadval. Kichik sanoat zonalarini boshqarish metodologiyasining asosiy komponentlari

| Komponent                    | Tavsifi                                                                                                 | Asosiy vazifalar                                                                                                 | Kutilayotgan natijalar                                                                                              |
|------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Strategik rejalashtirish     | KSZning uzoq muddatli maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari va rivojlanish strategiyasini belgilash.        | Bozor muhitini tahlil qilish, rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish, maqsadli indikatorlarni shakllantirish. | Barqaror rivojlanishning ta'minlanishi, raqobatbardoshlikning oshishi va strategik muvofiqlikning mustahkamlanishi. |
| Operativ boshqaruv           | Kunlik ishlab chiqarish jarayonlari va xizmat ko'rsatish faoliyatini tashkil etish.                     | Ish jarayonlarini nazorat qilish, resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish ritmini ta'minlash.        | Ishlab chiqarish samaradorligining oshishi, jarayonlarning barqarorlashuvi va mahsulдорlikning ortishi.             |
| Resurslarni boshqarish       | Moliyaviy, moddiy va inson resurslaridan oqilona va tizimli foydalanish.                                | Xarajatlarni nazorat qilish, resurslarni optimal taqsimlash, iqtisodiy tejamkorlikni ta'minlash.                 | Xarajatlarni kamaytirish, ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish va umumiy natijadorlikning oshishi.            |
| Innovatsiyalarni joriy etish | Yangi texnologiyalar, usullar va innovatsion yechimlarni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish.      | Texnologik yangilanishlarni amalga oshirish, ilmiy-tadqiqot (R&D) faoliyatini kuchaytirish.                      | Mahsulot sifatining oshishi, raqobatbardoshlikning kuchayishi va ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiyasi. |
| Axborot texnologiyalari      | Boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish, avtomatlashtirish va ma'lumotlar bazalarini optimallashtirish. | ERP, CRM kabi axborot tizimlarini joriy etish, real vaqt ma'lumot almashinuvi.                                   | Qaror qabul qilish jarayonining tezlashuvi, boshqaruvning aniqligi va shaffofligining oshishi.                      |
| Kadrlarni rivojlantirish     | Xodimlarning malakasini oshirish va motivatsiya tizimini takomillashtirish.                             | Ta'lim va treninglar, kasbiy rivojlanish dasturlari, rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish.                   | Mehnat unumdorligining oshishi, ishga sadoqatning kuchayishi va inson kapitalining rivojlanishi.                    |



Kichik sanoat zonalarini samarali boshqarish uchun ularni tashkil etuvchi barcha jarayonlar va faoliyatlar tizimli yondashuv asosida boshqarilishi lozim. Buning uchun boshqaruv metodologiyasida bir nechta asosiy komponentlar ajralib turadi. Ushbu komponentlarning o'zaro integratsiyasi kichik sanoat zonalarining barqaror, izchil va samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Samarali boshqaruvni ta'minlashga xizmat qiluvchi bir qator metodologik tamoyillar mavjud bo'lib, ularning barchasi KSZlarning barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga qaratilgan. Asosiy metodologik tamoyillar quyidagilardan iborat:

- Strategik yondashuv. KSZlarni boshqarishda uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish muhim o'rin tutadi. Mazkur strategiya atrof-muhit omillarini, iqtisodiy sharoitlarni, bozor talablarini chuqur tahlil qilish va mavjud resurslardan oqilona foydalanish tamoyillariga asoslanadi. Strategik rejalashtirish ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirish, ehtimoliy xavflarni kamaytirish va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

- Integratsiyalashgan boshqaruv. Kichik sanoat zonalarini ko'plab kichik va o'rta korxonalarni birlashtirgan murakkab tizim bo'lgani sababli, boshqaruv jarayonlari yagona tizim asosida muvofiqlashtirilishi zarur. Integratsiyalashgan boshqaruv ishlab chiqarish, moliyaviy boshqaruv, marketing, logistika va inson resurslarini uyg'unlashtiradi. Bu yondashuv orqali zaxiralar optimallashtiriladi, ishlab chiqarishdagi isrofgarchilik kamayadi va umumiy samaradorlik ortadi.

- Innovatsion yondashuv. Zamonaviy sanoat rivojida innovatsiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuv yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash va texnologik modernizatsiyani amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Bu esa mahsulot tannaxining pasayishiga, bozor ulushining kengayishiga va raqobat ustunliklarining ortishiga sabab bo'ladi.

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Boshqaruv tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish KSZlarda samaradorlikni sezilarli oshiradi. Real vaqt rejimida ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish boshqaruv qarorlarini tezlashtiradi, resurslardan foydalanishni optimallashtiradi va jarayonlarning shaffofligini ta'minlaydi. ERP, CRM kabi boshqaruv tizimlaridan foydalanish boshqaruvning zamonaviy modelini shakllantiradi.

- Kadrlarni rivojlantirish va rag'batlantirish. KSZlarning muvaffaqiyati bevosita inson kapitali darajasiga bog'liq. Malakali kadrlarning tayyorlanishi, doimiy o'qitish, kasbiy rivojlanish dasturlarini joriy qilish va samarali rag'batlantirish tizimini yaratish boshqaruvning muhim omillaridan biridir. Ushbu yondashuv mehnat unumdorligini oshirish, innovatsion fikrlashni kuchaytirish va korxona faoliyatida barqaror natijalarga erishishga yordam beradi (2-jadval).

2-jadval. Kichik sanoat zonalarini samarali boshqarish yo'llari va ularning afzalliklari

| Boshqarish yo'li                             | Tavsifi                                                                                                                               | Afzalliklari                                                                                                     | Kutilayotgan natijalar                                                                                                                |
|----------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Davlat va xususiy sektor hamkorligi          | Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va xususiy investitsiyalarni jalb etish orqali KSZlarning rivojlanishini ta'minlash. | Soliq imtiyozlari, subsidiyalar, infratuzilmaning yaxshilanishi, qo'shimcha investitsiya oqimini shakllantirish. | Sarmoya hajmining oshishi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va yangi loyihalarning jadal rivojlanishi.                      |
| Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari       | Elektron boshqaruv tizimlarini joriy etish, jarayonlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish.                                        | Boshqaruv jarayonlarida xatoliklarning kamayishi, tezkor ma'lumot almashinuvi, yuqori aniqlikdagi tahlillar.     | Boshqaruv samaradorligining oshishi, tez va aniq qaror qabul qilish jarayonining shakllanishi.                                        |
| Kadrlarni rivojlantirish va rag'batlantirish | Xodimlar malakasini oshirish, doimiy treninglar va samarali motivatsiya tizimini yaratish.                                            | Kasbiy ko'nikmalarning oshishi, ishga bo'lgan qiziqish va sadoqatning kuchayishi.                                | Mehnat unumdorligining oshishi, ish sifatining yaxshilanishi va innovatsion faollikning ortishi.                                      |
| Innovatsiyalarni qo'llash                    | Yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish va innovatsion yondashuvlarni kengaytirish.                           | Mahsulot va jarayonlar sifatining yaxshilanishi, texnologik modernizatsiya.                                      | Raqobatbardoshlikning oshishi, bozor ulushining kengayishi va eksport salohiyatining ortishi.                                         |
| Resurslarni tejamo boshqarish                | Energiya, xomashyo va boshqa resurslardan samarali va tejamo foydalanish.                                                             | Xarajatlarning kamayishi, atrof-muhitga salbiy ta'sirning pasayishi, ekologik barqarorlikning mustahkamlanishi.  | Iqtisodiy samaradorlikning oshishi, yashil ishlab chiqarish tamoyillarining joriy etilishi va barqaror rivojlanishning ta'minlanishi. |



Kichik sanoat zonalarini boshqarish jarayonida samaradorlikni oshirish uchun turli metodlar va yondashuvlar qo'llaniladi. Ushbu boshqaruv yo'llari sanoat zonalarining iqtisodiy va tashkiliy barqarorligini ta'minlash, ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Quyida KSZlarni samarali boshqarishning eng muhim yo'llari va ularning afzalliklari bayon etiladi.

Kichik sanoat zonalarini samarali boshqarish yo'llari – bu bir-birini to'ldiruvchi hamda tizimli ravishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar majmuasidir. Har bir boshqaruv usuli o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lib, ularning uyg'un ishlashi sanoat zonalarining barqaror faoliyatiga va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois boshqaruvda zamonaviy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va inson resurslarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

KSZlarda uzoq muddatli strategiyani shakllantirish jarayonida iqtisodiy muhit, bozor tendensiyalari va raqobatchilar faoliyati chuqur o'rganiladi. Strategik rejalar asosida investitsiyalarni jalb qilish, yangi ishlab chiqarish liniyalarini tashkil etish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish rejalashtiriladi. Bu yondashuv sanoat zonalarining kelajakdagi rivojlanishini aniq belgilash va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Operativ boshqaruv KSZ faoliyatining kunlik jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda resurslarni oqilona taqsimlash, ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish, mahsulot sifatini ta'minlash va xavfsizlik talablariga rioya etish muhim o'rin tutadi. To'g'ri tashkil etilgan operativ boshqaruv ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini va iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Moliyaviy boshqaruv KSZlarning barqarorligini ta'minlovchi asosiy yo'nalishlardan biridir. Bu jarayonda moliyaviy resurslarni boshqarish, xarajatlarni nazorat qilish, daromad va foyda ko'rsatkichlarini tahlil qilish, investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash va moliyaviy risklarni boshqarish kabi vazifalar bajariladi. Moliyaviy boshqaruvning puxta yo'lga qo'yilishi KSZning iqtisodiy mustahkamligini ta'minlaydi.

Mahsulotlarni bozorga chiqarish, mijozlar bilan samarali aloqalarni o'rnatish, raqobatchilarni tahlil qilish va reklama kampaniyalarini tashkil etish ham KSZning muhim boshqaruv yo'nalishlaridan biridir. Rivojlangan marketing faoliyati mahsulotlarga bo'lgan talabni oshirish, yangi mijozlar jalb qilish va bozorga kirishni yanada samarali qiladi.

Kichik sanoat zonalarida yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan integratsiyani kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuv mahsulot diversifikatsiyasini oshiradi, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi va yangi bozorlarni egallash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash jarayonlari, davlat–xususiy sektor hamkorligi, soliq imtiyozlari, subsidiyalar hamda investitsiya muhitining yaxshilanishi KSZlarning izchil rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, nodavlat tashkilotlar, mahalliy hamkorlar va xorijiy investorlar bilan hamkorlikni kengaytirish qo'shimcha sarmoya jalb etish va texnologiyalarni yangilash imkonini beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, elektron ma'lumot almashinuvi va real vaqt rejimida monitoring olib borish kabi afzalliklarni yaratadi. ERP (Enterprise Resource Planning) va CRM (Customer Relationship Management) tizimlarining keng qo'llanishi boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi hamda xatoliklar sonini kamaytiradi.

Xodimlarning malakasini oshirish, yangi boshqaruv va ishlab chiqarish usullarini o'rgatish, motivatsiya tizimlarini shakllantirish va iqtidorli mutaxassislarni jalb qilish KSZlarning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Yetuk kadrlar mavjud bo'lganda innovatsiyalar joriy etish jarayoni ham yanada tez va samarali kechadi.

Ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlik, startaplar va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash KSZlarning texnologik salohiyatini oshiradi. Bunday hamkorlik yangi mahsulotlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy asoslash hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Energiya, xomashyo va boshqa turdagi resurslardan oqilona foydalanish, tejamkorlik tamoyillarini joriy etish hamda ekologik xavfsizlik talablariga rioya qilish KSZlarning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlar KSZlarning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytiradi va barqaror rivojlanish omillarini mustahkamlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik sanoat zonalarini faoliyatini samarali boshqarish zamonaviy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun strategik rejalashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, malakali kadrlarni tayyorlash hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash asosiy ustuvor yo'nalishlar ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlardan foydalanish va davlat siyosatini izchil amalga oshirish KSZlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.



Kichik sanoat zonalarini samarali boshqarish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, barqaror rivojlanishi va sanoat salohiyatining kengayishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy boshqaruv metodologiyalari strategik rejalashtirish, tizimli integratsiya, innovatsiyalarni keng joriy etish va inson kapitalini rivojlantirishga asoslanadi. KSZlarning muvaffaqiyatli faoliyati davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash choralari, moliyaviy mexanizmlar, axborot texnologiyalari infratuzilmasi va ilmiy hamkorlikning kuchayishi bilan chambarchas bog'liq.

Boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali sanoatning yangi bosqichga o'tishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va milliy iqtisodiyotning mustahkamlanishi kutiladi. Shu bois kichik sanoat zonalarini faoliyatini boshqarish metodologiyasini doimiy ravishda rivojlantirish, amaliy jihatdan takomillashtirish va joriy etish iqtisodiy taraqqiyotning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kelgusida kichik sanoat zonalarini boshqarishning yanada takomillashgan metodologiyalarini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish, innovatsiyalarni kengaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, mazkur metodologik yondashuv kichik sanoat zonalarining barqaror va samarali ishlashini ta'minlash, ularni iqtisodiy jihatdan samarali va raqobatbardosh faoliyat yuritadigan hududiy sanoat markazlariga aylantirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ismailov, A., & Karimov, S. (2021). Effective management of small industrial zones: Challenges and opportunities. *Journal of Industrial Economics*, 12(3), 45–59.
2. Mamatov, B. (2020). Innovative approaches in the development of small industrial zones in Uzbekistan. Tashkent: Science Press.
3. Kuznetsova, E. V. (2018). Management methodologies in small industrial enterprises. Moscow: Business Literature.
4. Назаров, Ф. Ж. (2022). Системный подход к управлению малыми промышленными зонами. *Журнал экономических исследований*, №4, 78–85.
5. World Bank. (2019). Enhancing Industrial Competitiveness in Developing Countries. Washington, D.C.: World Bank Group.
6. Ходжиев, Р. Т. (2021). Эффективное управление ресурсами в малых промышленных зонах. *Иқтисодий тадқиқотлар журнали*, 15(2), 34–41.
7. Shodmonqulov, K. M. (2022). Kichik sanoat zonalarini faoliyatini samarali boshqarish yo'nalishlari (Qashqadaryo viloyati misolida). PhD dissertatsiyasi. Toshkent, 2022-yil.
8. Salimov, B. T., & Salimov, B. B. (2020). Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish. Monografiya. Toshkent: Iqtisodiyot.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 12

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---